

9-SINF ONA TILI DARSLARIDA EVFEMIZMLARDAN FOYDALANISH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Gulamova Dilobar Imamkulovna

Osiyo xalqaro universiteti asistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10360779>

Annotatsiya. Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy tafakkuri yuksak, har qanday qiyin vaziyatdan o‘z aql-idroki, mustaqil ijodiy tafakkuri bilan omon chiqa oladigan, shuurida milliy ruhi mustahkam bo‘lgan shaxsni tarbiyalashni taqozo qiladi. Davlatimiz siyosati negizida shaxs farovonligi va baxt-saodatini ta’minalash yotar ekan, unda shaxs tarbiyasi yuqorida ko‘rsatilgan maqsaddan boshqa mo‘ljalda tashkil etilishi mumkin emas. Bu jarayonda: “Maktab bu – hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi burchiga aylanishi kerak”.

Demak, bosh maqsadimiz “«ta’lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat” ekan, buning asosiy vositalaridan bo‘lgan ona tili ta’limi masalasiga an’anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko‘z bilan qarashimiz lozim.

Kalit so‘zlar: maktabda ona tili ta’limi, ona tili ta’limi maqsadi, pragmatik qiymatli topshiriq, mustaqil fikrlash.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE CULTURE OF USING EUPHEMISMS IN 9TH GRADE NATIVE LANGUAGE CLASSES

Abstract. A competitive market economy requires the education of an entrepreneur, a person with high creative potential, a person who is able to survive any difficult situation with his own mind, independent creative thinking, and a strong national spirit. Since the policy of our state is based on ensuring the well-being and happiness of the individual, the education of the individual cannot be organized for any other purpose than the one indicated above. “School is a matter of life and death, a matter of the future. This cannot be decided only by the state, government or governors. This fact must be taken into account”.

So, while our main goal is to “develop students’ independent thinking skills”, we need to look at native language learning, one of the main tools, from a completely different perspective than usual.

Key words: mother tongue teaching at school, purpose of mother tongue teaching, pragmatic value appropriation, independent thinking.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЭВФЕМИЗМОВ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В 9 КЛАССЕ

Аннотация. Рыночная экономика, основанная на конкуренции, требует воспитания предпринимателя, человека с высоким творческим мышлением, способного своим умом и независимым творческим мышлением пережить любую трудную ситуацию, имеющего в своем сознании сильный национальный дух. Поскольку основой политики нашего государства является обеспечение благополучия и счастья личности, невозможно организовать образование личности для иных целей, кроме упомянутых выше. В этом процессе: «Школа – это вопрос жизни и смерти, вопрос будущего. Ее не могут решить сами государство, правительство и губернаторы. Это должно стать долгом всего общества».

Итак, поскольку наша главная цель – «сформировать у обучающихся навыки самостоятельного мышления», то нам следует взглянуть на вопрос обучения родному языку, который является одним из основных средств этого, с совершенно иной точки зрения, чем традиционная.

Ключевые слова: обучение родному языку в школе, цель обучения родному языку, задание прагматического значения, самостоятельное мышление.

Ona tilining ichki imkoniyatlarini ta'lim oluvchiga yetkazish va bu imkoniyatlardan nutq sharoiti va maqsadiga mos foydalana olish ko'nikmasini shakllantirish asosida unda zotan mujassamlashgan ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirishni ko'zlaydigan kognitiv-pragmatik ta'lim usuli bilmidon ijrochi shaxsni etishtirishga xizmat qiladigan retroskopik ko'rgazmali bayon ta'lim usulidan tamoman farqli bo'lgan o'quv materiali bilan ishlashni talab etadi. Agar ko'rgamali bayon usulida o'quv materiali darslikda mujassamlashsa va, asosan, shu bilan cheklansa, kognitiv-pragmatik ta'lim usulida darslik zaruriy o'quv materialidan faqat namuna (chunonchi, olma, anor..... - davom ettiring) yoki o'quv jarayonida kuzatish va tahlil uchun zarur materialga ishora (chunonchi, it va mushuklarga beriladigan atoqli otlardan beshtadan toping/yozing yoki Abdu-qismi bilan boshlanadigan o'g'il bolalar ismi toping/yozing v.h.) beradi, xolos. Shuning uchun kognitiv-pragmatik ta'lim usulida tuzilgan darslik hech qachon o'quv materialini to'liq berishni va shu bilan darslik hajmini shishirishni ko'zlamasligi lozim. Shuni hamisha esda tutish lozimki, zaruriy o'quv materialini darslik orqali ta'lim oluvchiga yetkazish bola uchun (xususan, 10-12 yoshda) tug'ma-zotiy bo'lgan izlanuvchanlik, qiziquvchanlik hissiyotini so'ndiradi, uni izlab topish quvonchidan mahrum qiladi. Bu esa bora-bora ta'lim oluvchining (xususan, 16-17 va undan kattaroq yoshdan keyin) passivlashishi, dangasalashishi, "tayyorga ayyorlashishi"ga - nofaol, loqayd ijrochiga aylanishiga olib keladi - u izlash va topish ko'nikmalarini, bunga qiziqish ehtiyojini yo'qotadi.

Darslik topshirig'i, ustoz-muallim yetakchiligidagi zaruriy o'quv materialini izlash va topish ustida ish esa ta'lim oluvchida tug'ma (ontologik) ijodiy izlanish kurtaklariga ovi hayot bag'ishlab, ularning gurkirab yashnashiga, gullab, etilib, shirin-shirin hosil berishiga olib keladi. Shuning uchun ko'pgina ilg'or davlatlarning maktab darsliklari hajman juda kichik; ular o'quv materialini tanlash, topish, uqish ustida ish **algoritmini** o'z ichiga oladi, xolos. Darslikni shishiradigan, uni salovatli, bahosini esa har kimning ham qurbi etmaydigan darajada qimmat qiladigan narsa o'quv materialidir. Bundan tashqari, o'quv materiali darslikda qanchalik ko'p bo'lmasin (xususan, adabiyot va til bo'yicha darsliklarda), baribir tasvirlanayotgan hodisani to'liq ochib bera olmaydi va o'quvchi u yoki bu muallif zarur deb sanagan parcha-butundan uzilgan nochor-u nogiron bo'lak bilan kifoyalanib qoladi. Kognitiv-pragmatik ta'lim usulida darslik bergen topshiriq (yo'llanma) asosida o'quvchi o'quv materialini o'zi mustaqil izlab topganda, sinfdagi 30 o'quvchi o'tti z turdag'i shaklan har xil, mohiyatan o'xhash hodisalar bilan ishlaydi; sinf ko'chirmachilik, bir xillik va bir-birini takrorlashdan ozod bo'ladi. Bu esa har bir - eng zaif o'quvchida ham - qiziqish uyg'otishi, unda faollik kurtaklarini yoyishi turgan gap.

O'quvchi darslik ko'rsatmasi asosida o'quv materialini qayerdan oladi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Hamma gap ham, hamma muammo ham shunda. Biz sovet didaktikasidan qolgan

dahshatli asoratdan – ta’lim jarayonida darslik o‘quv materiali bilan cheklanib, axborot manbalaridan foydalanishni inkor etishdan–qutulishimiz zarur.

Ijod, ijodiy tafakkur imkoniyatlardan samarali – shart-sharoitlarga mos ravishda unumli foydalana olish demakdir. Shu bois ijodiy tafakkur hamisha imkoniyatlarni bilish bilan uzbeki bog’liqdir. Bugungi kunda O‘zbekistonimizda ona tilining umumta’lim mакtablarida o‘qitilishi jarayonida keng amaliyotda bo‘lgan ta’lim usuli – kognitiv-pragmatik usul shu tamoyilga asoslangan. Ma’lumki, har bir til ayni bir turdagи axborotni (xabarni, hayotdagi voqeа-hodisa bayonini, shaxsiy ijobiy va salbiy ninosabatni, his-tuyg‘uni, o‘y-fikrni ...) so‘zlovchi tomonidan tinglovechiga etkazish uchun xilma-xil (mohiyatan cheksiz) imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga ona tilning bunday cheksiz imkoniyatlaridan har birining o‘z qo‘llanilish o‘rni va sharoiti bor-o‘rinsiz qo‘llanilgan imkoniyat turi ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi hech kimga sir emas.

Biz darslik materiallaridan chekinib ularga monand o‘quv topshiriqlaridan namunalar berishga harakat qilamiz.

Mavzu: «So‘zdan so‘zning farqi bor...»

Sinf o‘quvchilari guruhlarga bo‘linadi va har bir guruh o‘ziga berilgan matn topshiriqlari ustida ishlaydi.

1-guruh uchun matn va o‘quv topshirig`i:

1-topshiriq. Mirkarim Osimning «To‘maris» afsonasini diqqat bilan o‘qib chiqing va belgilangan so‘zlarning qo‘llanilishini tushuntiring. Sizningcha, muallif matnda so‘z qo‘llashda nutq madaniyatiga qaydarajada rioya etgan? Buning uchun muallif qanday til vositalaridan foydalangan?

To‘maris

*Eng qadim zamonalarda Amudaryo yoqalarida O‘rta Osiyo aholisiga mansub massagetlar yashar edi. Bu davrda ularga **marhum** podshoning xotini malika To‘maris boshchilik qilar edi. Eron shohi kir massagetlarni o‘ziga **qaram qilib olish** maqsadida To‘marisga **uylanmoqchi bo‘lib**, sovchilar yuboradi. Malika shohning asl maqsadini payqab qolib unga **rad javobini beradi**. Shundan so‘ng Kir ochiq tajovvuzga o‘tadi va massagetlar tomon **qo‘sishin tortib keladi**. U daryordan o‘tish uchun ko‘priklar qurdira boshlaydi. Bu xatti-harakatdan boxabar bo‘lgan To‘maris Kirga elchi yuborib, shunday deb aytadi: "Ey shoh, qilayotgan ishingni to‘xtat! Hali sen boshlagan ishingning qanday tugashini bilmaysan-ku? Qo‘y sen o‘z yurtingda podshohlik qilaver, bizni ham o‘z holimizga qo‘y. Lekin sen bunga ko‘nmaydigan ko‘rinasan. Agar biz bilan kuch sinashmoqchi bo‘lsang, u holda ko‘priklar qurib ovora bo‘lma, biz daryordan uch kunlik yo‘l nariga ketamiz, sen bizning yerimizga o‘tib ol yoki o‘z yurtingda **uchrashishni istasang**, shuni xabar qil".*

Bu taklifi eshitgach, Kir a‘yonlarini to‘plab, kengashadi. Ularning ko‘pchiligi To‘marisning chekinishini quvvatlaydilar. Lekin ular orasidagi Krez ismli maslahatchi shohga boshqacha bir hiyla o‘rgatadi.

*"Ey Kir, – deydi u, – agar sen o‘z qo‘shining qirilib ketmasin desang, fikrimni aytaman. Sen ularning inson ekanliklarini va taqdir hamisha bir xil bo‘lavermasligini bilsang, u holda qulq sol! Agar biz dushmani o‘z yerimizga o‘tkazsak-da, yengilsak, podshohligingdan **batamom ayrlasan**. Chunki **g‘olib chiqqan** dushman mamlakat ichkarisiga tomon intiladi. Agar dushman yeriga o‘tib, g‘alaba qilsang, oldinga intilasan, lekin ularni hamma yerda ta‘qib qilish darajasida*

yenga olmaysan. Xotin kishidan yengilsang, chidab bo‘mas **nomusga qolasan**. Shuning uchun, yaxshisi, biz To‘maris aytgan yerga boraylik-da, uni yengishga harakat qilaylik, Menimcha, massagetlar eroniylarday noz-no‘matning lazzatini bilishmaydi. Shuning uchun biz sharobni ayamasdan, mollar so‘yib, katta ziyo fat tayyorlaylik-da, yaroqsiz askarlardan bir qismini qoldirib, orqaga qaytaylik. So‘ng o‘zimizni g‘alaba bilan sharaflaylik”. **Maslahat** Kirga ma‘qul tushdi. U To‘marisdan **chechinishni** so‘raydi. Kir o‘g‘li Kambazga Krezni topshirib, agar **urushdan qaytmasam**, uning maslahati bilan shohlik qilasan, deb Eronga jo‘natadi, o‘zi qo‘shini bilan massagetlar yurtiga o‘tadi.

U yerda Kir g‘alati bir tush ko‘radi. Tushida Gishtaspning katta o‘g‘li Doroning ikki yelkasidan ikki qanot o‘sib chiqqanmish va biri Mag‘ribni, ikkinchisi Mag‘shriqni to‘sib turarmish. Bu vaqtlar Doro 20 yoshda bo‘lib, yosh hisoblangani uchun urushga olinmagan edi. Tush Kir yuragiga g‘ashlik solibdi.

U Doroning otasini chaqirib:-O‘g‘ling menga qarshi **fitnada aybdor**, Eronga qaytib uni sudrab olib kel,-deydi.

Kir massagetlar yurtiga o‘tgach, Krez ta‘kidlaganidek, ziyo fat tayyorlab, bir oz askar qoldirib orqaga chekinadi.

Massagetlarning bir qism qo‘shini To‘marisning o‘g‘li Sparganis boshchiligida u yerga kelib, qoldirilgan askarlarni yengib, ziyo fatga mashg‘ul bo‘ladilar. So‘ng mast bo‘lib qolgan lashkarlar uyquga ketadilar.

Shu vaqt Kir hujumga o‘tib, massagetlarning ko‘pchilagini o‘ldirib, ko‘pini asir oladi. Asirlar orasida shahzoda Sparganis ham bor edi.

To‘maris voqeadan xabar topib, Kirga elchi yuborib aytadi:” Ey qonxo‘r Kir, uzum suvi yordamida bo‘lgan bu voqeadan xursand bo‘lma. Sen o‘g‘limni jang maydonida emas, **nayrang bilan qo‘lga olding**. Endi qulq sol, senga bir yaxshi maslahatim bor. O‘g‘limni menga topshirgin-da, qilgan ishing uchun **jazolanmasdan** yurtingga jo‘na. Yo‘qsa, massagetlar tangrisi nomi bilan qasamyod qilib aytamanki, sen ochko‘z yuhoning qonga tashnaligingni qondiraman”.

Kir bu so‘zlarga parvo qilmadi.

Sparganis esa o‘ziga kelgach, voqeani anglab, xijolatdan o‘zini-o‘zi o‘ldiradi.

Shundan so‘ng To‘maris qo‘shinini to‘plab, jangga otlanadi. Dahshatli jang bo‘ladi. Unda massagetlar **g‘olib keladi**. To‘maris o‘z so‘zi ustidan chiqib, jangda o‘ldirilgan Kirning boshini kesib, qon bilan to‘ldirilgan meshga soladi. U aytadi:”Garchi men jangda halollik bilan yenggan bo‘lsam-da, sen makkorlik bilan meni o‘g‘limdan **judo qilib qayg‘uga solding**. Ontimga amal qilib seni **qonga to‘ydiraman**”.

2-topshiriq. Berilgan matn mazmunini qisqartirib, 8-10ta sodda gapda ifodalang. Bu mavzuning uzoq yillardan beri xalq tomonidan unutilmasligiga, yashovchanligiga sabab nima?

2-guruh uchun matn va o‘quv topshirig`i:

1-topshiriq. Mirkarim Osimning «Shiroq» afsonasini diqqat bilan o‘qib chiqing va belgilangan so‘zlarning qo‘llanilishini tushuntiring. Sizningcha, muallif matnda so‘z qo‘llashda nutq madaniyatiga qaydarajada rioya etgan? Buning uchun muallif qanday til vositalaridan foydalangan?

Shiroq

...Eshikdan yoshi oltmishdan oshgan, tetikkina, **barvasta bir chol** kirib, tabzim qildi.

– Ijozat bersangizlar, men ham qatoringizga o‘tirib, o‘z fikrimni aytsam. Nima to ‘g‘risida gaplashayotganingizni bilaman.

– O‘tir, o‘tir, gapingga quloq solamiz, - dedi Rustak.

– Eron shohining askarlari Sirdaryo ostidagi qum donalaridan ham ko‘p, ularni **jangga chorlab**, engish mahol. SHunday bir hiyla topmoq kerakki, dushmanning oyog‘i toyib, halokat jariga qulab tushsin.

– Qani ayt, qanday hiyla o‘ylab topding? - deb so‘radi Rustak.

– Buni faqat senga aytaman. Oqsoqollar o‘tovingni tark etsinlar. Rustak bu gapni eshitib aftlari burishib ketgan oqsoqollarga bir qarab oldi-da:

– Nima, sen shu **ulug` zotlarga ishonmaysanmi?** - deb so‘radi.

– Ishonaman, ular el g`amini yeydigan halol odamlar, o‘lsalar ham dushmanga sir boy bermaydurlar. Ammo ularning yaqin do‘satlari, inilari, o‘g‘illari, xotinlari bor. Men aytgan gaplarni beixtiyor ularga **aytib qo‘yishlari mumkin**. U yog‘i mablum, el og`ziga elak tutib bo‘lmaydur. Oqsoqollar meni kechirsinlar...

Urug` boshliqlari birin-ketin o‘rinlaridan turib chiqib keta boshladilar.

Oq o‘tovdan nariroqda o‘tirgan oddiy ko‘chmanchilar SHiroqni yaxshi tanir, uning qo‘biz chalib aytgan dostonlarini ko‘p marotaba tinglagan, o‘zi ham dostonlarda madh etilgan **sheryurak odamlardan biri** ekanligini bilar edilar.

Oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin SHiroq o‘tovdan chiqdi. Uni ko‘rgach, ko‘chmanchilar **dahshatga tushib** o‘rinlaridan sakrab turib ketdilar. Keksa cho‘pon kesilgan ikki qulog‘i va burniga kuydirilgan namat bosib, sizib oqayotgan qonni to‘xtatishga harakat qilardi. Kutilmagan **bu fojiadidan** g`azablangan odamlar uning atrofini o‘rab oldilar va ustma-ust savol yog`dira boshladilar:

– Quлоq-burningni nega kedsilar?

– Sen **sho‘rlik** nima gunoh qilib eding?

Rangi murdadek oqarib ketgan SHiroq tishini tishiga qo‘yib, o‘zini bardam tutishga urinar, urug` doshlarining savollariga javov bermasdi. Uni bir joyga o‘tqizib, kuydirilgan namat bilan qonni to‘xtatdilar. CHolning sahro shamoli va cho‘l quyoshidan qoraygan yuzida **g`azab alomati yo‘q** edi. U o‘ziga kelgach, o‘rnidan turdi-da, kun botish tomonga qarab ketdi. **Hang-mang bo‘lgan** kishilar uning orqasidan qaraganlaricha qotib qoldilar.

Dehqonchilik va bog`dorchilik bilan shug`ullanuvchi so‘g`d xalqini itoatga keltirgan Eron shohi YAksartning so‘l qirg`og`idagi ko‘chmanchilar ustiga **yurish** oldidan dam olmoqda. U etti paxsa devor bilan o‘ralgan bog` o‘rtasidagi baland shiyponda o‘z abyonlari bilan may ichib **shakarguftorlik** qilib o‘tirardi.

Mulozimlaridan biri shiypon yoniga kelib taъzim qildi-da, quлоq-burni yo‘q g`alati bir chol shoh huzuriga kirishga izn so‘rayotgani bildirdi. Doro surishtirib, kelgan odamning shak qabilasidan ekanligini bilgach:

– Mayli, kirsin, - dedi. Ikki qurolli mulozim boshlab kelgan SHiroq shohdan o‘n besh qadamcha berida to‘xtadi-da, er o‘pdi va o‘rnidan turib, taъzim qilganicha qotib qoldi.

Doro baland bo‘yli, qushburun, chiroyli odam edi. Uning ponaga o‘xshagan soqoli ko‘kragiga tushgan va mayin taralgan. Ustidagi to‘q qizil zarrin to‘ni yiltirar, qo‘lidagi uzun **aso**

dastasiga qadalgan qimmatbaho toshlar qorong`i kechadagi yulduzlardek charaqlar edi. Tosh qo`g`irchoqqa o`xshagan ikki mulozim uni sekin-sekin elpib turardi.

Doro kamon qoshlarini chimirib, baland ovoz bilan:

- Hoy odam, o `zing kimsan, oting nima va qaysi urug`dansan? - deb so `radi.
- Otim Shiroq, o `zim shak urug`idanman, - javov qildi chol.
- Kelib mening **istirohatimni buzmoqdan maqsading nadir?**

– Maqsadim **mulozamat kamarini belga bog`lab**, umrimni siz shahanshoh xizmatida o `tkazmoqdir. Janovlariga xayrixoh bo `lganim tufayli qabiladoshlarimdan **qattiq sitam ko`rdim**.

Alarga men: «SHohi Eron bilan urushaman, deb chiranjang, sizlarni bir hamlada zer-u zabar qilg`ay, yaxshisi, **itoat kamarini bog`lab, ul zoti bovarakotning etaklaridan o`ping**», dedim. Bu gapdan xabar topgan hukmdorimiz Rustak g `azabga mindi va mening qulog-burnimini kestirdi.

Men endi sizning yordamingiz bilan undan o `chimni olmoqchiman. Agar **ijozati oliy** bo `lsa, engilmas qo `shiningizni yolg`iz podachilar biladigan so `qmoqlar bilan shak lashkarlarining orqasidan olib chiqar edim, keyin ularni **qilich damidan o `tkazmoq** qiyin emas...

Shiroqning gapini eshitib, Doro o `yga toldi. Agar jangovar shak qabilalari shu yo `sinda yakson qilinsa, O `kuz bilan Yaksart o `rtasidagi serunum erlarni bosib olgan Eron **lashkarlarining bexatarligi ta `min etilgan bo `ladi**. Ammo bu keksa cho `ponni bir sinab ko `rmoq kerak.

Shiroq shohning **ishonchszilik ko `zi bilan qarayotganini fahmlab**, o `z so `zining to `g `riligini isbot qilishga kirishdi:

– Axir qulog-burnimning yaqindagina kesilgani ko `rinib turibdi-ku! Biznikilar bekorga o `z urug`lariga bunday **sitam yetkazmaydurlar**.

U o `ylab qo `ygan dalillarini keltirib, uzundan uzoq gapirdi va o `zining Eron shohiga sodiqligini, shaklarga dushman ekanligini isbot qilishga tirishdi, so `zining oxirida Quyosh tangrisini shafe keltirib ont ichdi.

Doro sarkardalari bilan maslahatlashib, shaklar ustiga qo `shin yuborishga, SHiroqni esa yo `lboshlovchi qilib olishga qaror berdi.

Eron askarlari yo `lboshlovchining maslahati bilan etti kunlik suv, oziq-ovqat, em-xashak olib yo `lga chiqdilar va daryoning chap qirg`og`idagi qum sahrolaridan borib shaklarga orqa tomonidan **hujum qilmoqchi** bo `ldilar.

Dastlabki kunlar yo `l uncha mashaqqatl bo `lmadi. Cho `l o `tlari endi **qovjirab** kelayotgan bo `lsa ham onda-sonda buloqlar atrofida ko `m-ko `k o `tloqlar uchrab turardi. Bora-bora cho `l sahroga aylandi, odamlar va otlarning **suvga ehtiyoji osha bordi**. Afsanaviy otlarning taqalariga o `xhab uyulib qolgan qumtepalardan oshib yoki chetlab o `tish **oson emas** edi. Qora terga tushib hansiragan otlar oyoqlarini qumdan arang tortib olib, boshlarini quyi solganlaricha bitta-bitta qadam tashlab borardi. **Sahroning berahm quyoshi yomon niyatda** kelayotgan bu qurolli odamlarning boshidan **olov selini quyar**, ichlarini kuydirib, tashnalikdan lablarini qovjiratar, qumlar ustida jimirlab turgan qaynoq havo o `pkalarini yondirardi.

Lashkarboshilarning toqatlari toq bo `lib, shaklar lashkargohiga qanch masofa qolganini Shiroqdan surishtira boshladilar. U esa manzilga yaqinlashib qolganliklarini va yana ikki kun yurish kerakligini aytib, boshliqlarni yupatardi. Biroq **sermashaqqat safarning ettinchi** kuni ham shaklardan **darak topmadilar**. Hammayoq dasht-biyobon, odam yursa, oyog`i, qush uchsa qanoti kuyadi. Suv, oziq-ovqat, em-xashak tamom bo `lgan, oriqlab ketgan otlar er iskab suv qidiradi,

qovjiragan lablari shishib ketgan odamlar bir qultum suv uchun bir yillik umrlaridan kechishga tayyor!

Shiroqni o'rtaga olib: «Bizni qaerga boshlab kelding, ablah!» deb **qisti-bastiga oldilar**.

Askarboshilardan biri uning yoqasidan ushlab siltadi va **haqorat qila boshladi**. Shiroq yoqasini uning qo'lidan qutqarib namat qalpog`ini boshidan oldi-da, serajin va keng peshanasining terini artdi. Uning qovjiragan lablari istehzoli tabassumdan yorishib, qiyiq ko'zlarida o't chaqnab ketdi. Atrofini qurshab olgan **g`azabli chehralarga mag`rur qarab turib, qalpog`ini erga bir urdi-da, qahqahlab kulib yubordi**:

—Men engdim, Doro qo'shinini bir o'zim engdim!—dedi qichqirib.— Sizlarni aldab sahroning qoq o'rtasiga olib keldim, - qo'li bilan kunchiqish va kunbotish tomonni ko'rsatdi. - Bu yog'i ham yetti kunlik yo'l, bu yog'i ham. Istagan tomoningizga boravering! Mening go'rim shu yerda, - deb oyog'i ostini ko'rsatdi.

U o'z murodiga etgani uchun muqaddas otash va suv xudosiga shukur qilib, allaqanday bir duoni o'qidi. Darhaqiqat, u o'z elini quillikdan qutqarib qolish uchun jonidan kechgan, yovuz dushmanni **hiyla tuzog`iga ilintirish** uchun ming turli azov-uqubatni **bo'yniga olgan** edi. Mana endi u niyatiga etdi, dushman askarini halokat jari yoqasiga boshlab keldi. Endi dushman nima qilsa qilaversin! U Rustakning huzuriga kirganida shunday degan edi:

— Agar mening bola-chaqam va nevaralarimni unutmasang, o'z **shirin jonimdan kechib, yurt boshiga kelgan baloni daf etardim**. **Dushmanni daf qilmoq** uchun bir hiyla o'yab topdim.

Umrim oxirlab coldi, axir bu dunyodan ketmoq kerak. Men el-yurt uchun **o'limning shirin sharbatini ichmoqqa qaror qildim...** Gapimga qulq sol...

Hukmdor uning gapini oxirigacha tinglab, fikrini ma'qullagan edi. SHunda u yonidan o'tkir pichog`ini olib, o'z qulqoq-burnini kesgan va go'yo o'z eliga xiyonat qilgan bo'lib, dushman orasiga kirgan edi...

G`azabdan ko'zlar olayib, aft-basharasi bujmayib, xunuk bo'lib ketgan Eron sarkardalari Shiroqni o'rab olib, uni ura boshladilar. Sarkarda Ronosbat dabdalasi chiqqan Shiroqni ular qo'lidan qutqarib, bir chetga olib chiqdi-da, suv ichirdi, so'ngra chodiriga olib kirib, uni yaxshilikcha yo'lga solmoqchi bo'ldi. Endi Eron sarkardasi shaklar ustiga yurish qilib, ularni **tor-mor etishni** xayolidan chiqarib tashlagan, u faqat qo'shinini halokatdan qutqarib qolishni o'yldardi.

—Agar sen sahro quduqlari va chashmalarini bizga ko'rsatsang, gunohingdan kechib, So'g'diyada istagan qishloqlardan birini senga in'om etardik.

—O'z elimning dushmanlariga yordam uchun cho'zadigan qo'limni kesib tashlaganim ma'qul, - dedi u gapni qisqa qilib. Halokat yoqasida qolgan eroniylar achchiqlariga chiday olmay, fidokor cho'ponni chopib, qiyma-qiyma qilib tashladilar.

2-topshiriq. Berilgan matn mazmunini qisqartirib, 8-10ta sodda gapda ifodalang. Bu mavzuning uzoq yillardan beri xalq tomonidan unutilmasligiga, yashovchanligiga sabab nima?

Topshiriqni to'g'ri bajargan guruh a'zolari o'qituvchi tomonidan rag`batlantirib boriladi.

Ma'lumki, ona tili darslarida o'quvchi nazariy jihatdan quydagi larda erishishi lozim:

-til hodisalarini kuzatish;

-izlanish, hodisalar sirasini davom ettirish;

-ayri-ayri hodisalarini sharhlash;

–hodisalarni qiyoslash;
–hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni aniqlash;
–hodisalar orasidagi farqlarni aniqlash;
–o‘xshashlik, farqlar asosida hodisalarni tasniflash;
–hodisalar sirasi haqida umumlashma hosil qilish;
–hodisalarning yondosh hodisalar bilan aloqadorligini aniqlash;
–hodisalarni amaliy qo‘llash.

Amaliy jihatdan esa quyidagilarga erishishi lozim:

- ijodiylik, mustaqil fikrlashga odatlanish;
- ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og`zaki, yozma shakllarda to‘g’ri, ravon ifodalay olish;
- o‘ylab, ongli ravishda so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- nutqiy madaniyat darajasiga ko‘tarila olish.

Yuqorida sanab o‘tilganlarni ro‘yobga chiqarishda ona tili mashg`ulotlari keng va beqiyos imkoniyatlarga egadir.

REFERENCES

1. Dilobar Imamkulovna Gulamova. (2023). METHODS OF FORMING THE CULTURE OF USING EUPHEMISMS IN 5-6TH GRADE NATIVE LANGUAGE CLASSES. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 61–67. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue11-09>
2. Gulamova, D. I. (2023). NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA EVFEMIZMLARNING O ‘RNI.
3. Gulamova, D. . (2023). ЭВФЕМИЗМЫ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧЕНИКОВ. *Modern Science and Research*, 2(8), 231–236. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22630>
4. Gulamova, D. I. (2022). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 841-846.
5. Gulamova, D. (2023). USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL. *Modern Science and Research*, 2(7), 322-327.
6. Gulamova, D. . (2023). EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SPEECH CULTURE. *Modern Science and Research*, 2(4), 175–181. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19207>
7. Gulamova, D. . (2023). EUPHEMISM AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SPEECH CULTURE. *Modern Science and Research*, 2(4), 175–181. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19207>
8. Rokhila Bafoeva 2023. The Concept of Education in English and Uzbek Proverbs. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769). 1, 9 (Nov. 2023), 292–296.

9. Bafoeva, R. (2023). NEW METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 58-63.
10. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2022). NATIONAL AND CULTURAL PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR UNIVERSAL FEATURES. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 500-503
11. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARING GENDER XUSUSIYATLARI. *World of Science*, 6(5), 167-169.
12. Pirmanovna, N. G., & Bafoeva, R. (2023). O'ZBEK VA INGLIZ MAQOLLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNING O'RGANILGANLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(14), 74-76.
13. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF VOICE IN ENGLISH GRAMMAR. *Modern Science and Research*, 2(7), 430–433. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/22266>
14. Jabborova, A. (2023). WHAT IS DESIGN THINKING?. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(13). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/941>
15. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF PERSON IN ENGLISH GRAMMAR. *Modern Science and Research*, 2(8), 367–375. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23467>
16. Jabborova, A. (2023). THE CATEGORY OF PERSON IN ENGLISH GRAMMAR, THE ANALYSIS OF THEIR USE IN “LOVY OF LIFE” WRITTEN BY JACK LONDON. *Modern Science and Research*, 2(9), 97–108. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24087>
17. Jabborova, A. . (2023). PROBLEMS TO LEARN LANGUAGES. *Modern Science and Research*, 2(10), 780–786. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24706>
18. Jabborova, A. (2023). THE WAYS TO LEARN ENGLISH EFFECTIVELY. *Modern Science and Research*, 2(10), 23–30. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24965>
19. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Hayчный Фокус*, 1(6), 369-371.
20. O'gli, S. U. S. (2023). ELUCIDATION OF ISSUES OF THE HISTORY OF BUKHARA GUZARS IN OA SUKHAREVA AND HER STUDIES. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 30-35.
21. Shokir o'g'li, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
22. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.

23. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN RAISING A SPIRITUALLY MATURE GENERATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 488-493.
24. Sadullayev, U. (2023). O'zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor: mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning roli. In *Oriental Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 551-556). OOO «SupportScience».
25. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF THE NEIGHBORHOOD IN THE SOCIAL DEVELOPMENT OF SOCIETY. *Modern Science and Research*, 2(10), 755-757.
26. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. *Journal of new century innovations*, 35(1), 79-80.
27. Sadullayev, U. (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(9), 132-135.
27. Ismatovna, I. L. (2023). Improvement of Quality of Knowledge by Using Videos at Lessons. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(4), 100-102.
28. 20. Idiyeva, L. I. (2017). LISTENING AT LESSONS OF A FOREIGN LANGUAGE. *Достижения науки и образования*, (5), 65-66.
29. 21. Ismatovna, I. L. (2021). Typology of parts of speech and content of grammatical categories in two languages. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 53-57.
30. Корёгдиев, З. О. (2016). ACTIVITIES OF AMUDARYA FLOTILLA AT THE END OF THE NINETEENTH CENTURY-BEGINNING OF THE TWENTIETH CENTURY HISTORY (" TURKESTAN COLLECTION" MATERIALS). *Ученый XXI века*, (12 (25)), 20-22
31. Qoryog'diyev, Z. O. (2016). ACTIVITIES OF AMUDARYA FLOTILLA AT THE END OF THE NINETEENTH CENTURY-BEGINNING OF THE TWENTIETH CENTURY HISTORY (" TURKESTAN COLLECTION" MATERIALS). *Ученый XXI века*, (12), 20-22.
32. Adizovna, S. M. (2023). Code-Switching and Multilingualism: Exploring the Dynamics of Language use in Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 549-553.
33. Shodieva, M. (2023). UNDERSTANDING SOCIOLINGUISTIC APPROACH IN THE ENGLISH CLASSROOM. *Modern Science and Research*, 2(10), 64-68.
34. Rakhimova, S. T. (2023). WRITING MATTERS IN EFL. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 124-127.
35. Tolibovna, S. R. (2022). USE OF TECHNOLOGY IN MODERN CLASSROOM TEACHING. *Journal of new century innovations*, 14(1), 192-195.
36. Tolibovna, S. R. (2022). NOTEWORTHINESS OF FILM STUDIES AND ADAPTATION IN LITERATURE. *Journal of new century innovations*, 14(2), 3-5.
37. Tolibovna, R. S. (2023). THE LECTURER OF HISTORY AND PHILOLOGY DEPARTMENT, ASIA INTERNATIONAL UNIVERSITY.

38. Tolibovna, S. R. (2022, October). SIGNIFICANCE OF LEARNING ENGLISH IN CONTEMPORARY WORLD. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 1, No. 1, pp. 63-67).
39. Rakhimova, S. (2023). EXPLORING O. HENRY'S " THE FURNISHED ROOM": A TALE OF MYSTERY AND DESPAIR. *Modern Science and Research*, 2(10), 205-211.
40. Rakhimova, S. (2023). TEACHING READING THROUGH GRAMMAR. *Modern Science and Research*, 2(10), 795-800.